# Hamkorlik-bilim va tajriba asosi

2021-yil 2-aprel kuni TIQXMMI ma’ruzalar zalida “Suv xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti professor-o‘qituvchilari hamda talabalari uchun O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Toshkent shahar tashkiloti hamda O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati M.Ulug‘bek tumani tashkiloti mutaxassislari Tashlanova Nargiza Rustamovna hamda Irgasheva Anora Tursunbaevnalar tomonidan “Qizil xoch va Qizil Yarim Oy” harakatini vujudga kelish tarixi va rivojlanish bosqichlari shuningdek, harakatning yo‘nalish faoliyatlari favqulodda

vaziyat xizmati, mehr-shafqat va donorlik xizmati, yoshlar bilan ishlash xizmati, qidiruv xizmati hamda xalqaro bilim va tajribalarni targ‘ib qilish borasida amalga oshirilayotgan faoliyatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati xususida talaba yoshlar uchun seminar-trening o‘tkazib berishdi. Xalqaro tashkilotning faoliyati xususida talaba yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollariga atroflicha javoblar oldilar. Seminar-trening qiziqarli savol-javoblarga boy tarzda o‘tdi.

**“SXTE va B” fakulteti dekani o‘rinbosari J.Turdiev axboroti**
**TIQXMMI matbuot xizmati**